

NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR MULOQOTINI ERTAKLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

G'opporova Mahliyo Akbarjon qizi

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti pedagogika fakulteti
maxsus pedagogika yo'nalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda ertaklarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Ertaklar bolalar tafakkurini, nutq faolligini va emotsional sohani rivojlantirishda kuchli ta'sirga ega bo'lib, ular orqali bola o'z fikrini ifoda etishni, savol-javob qilishni va nutqiy faoliyatda ishtirok etishni o'rganadi. Tadqiqotda ertak asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning nutqiy rivojlanishga ta'siri, metodik yondashuvlar va samarali uslublar tahlil qilingan. Amaliy jihatdan esa, logoped va pedagoglar uchun tavsiya etiladigan mashg'ulot shakllari va muloqotni rag'batlantiruvchi texnikalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Nutqiy rivojlanish, ertak terapiyasi, muloqot ko'nikmalari, logopedik metodika, nutqiy faollik, nutqi rivojlanmagan bolalar, pedagogik yondashuv.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING COMMUNICATION IN CHILDREN WITH INCOMPLETE SPEECH DEVELOPMENT THROUGH FAIRY TALES

Annotation: *This article highlights the role and importance of fairy tales in developing communication skills in children with incomplete speech development. Fairy tales have a strong influence on the development of children's thinking, speech activity and emotional sphere, through which the child learns to express his/her opinion, ask questions and participate in speech activity. The study analyzed the impact of fairy tale-based classes on speech development, methodological approaches and effective methods. In practical terms, recommended forms of classes and techniques for stimulating communication for speech therapists and teachers are given.*

Keywords: *Speech development, fairy tale therapy, communication skills, speech therapy methodology, speech activity, children with incomplete speech development, pedagogical approach.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ОБЩЕНИЯ У ДЕТЕЙ С НЕПОЛНЫМ РЕЧЕВЫМ РАЗВИТИЕМ ПОСРЕДСТВОМ СКАЗОК

Аннотация: *В данной статье освещается роль и значение сказок в развитии коммуникативных навыков у детей с неполным речевым развитием. Сказки оказывают сильное влияние на развитие мышления, речевой деятельности и эмоциональной сферы детей, с помощью которых ребенок учится выражать свое мнение, задавать вопросы и участвовать в речевой деятельности. В*

исследовании проанализировано влияние занятий со сказками на речевое развитие, методические подходы и эффективные методы. В практическом плане даны рекомендуемые формы занятий и приемы стимулирования общения для логопедов и учителей.

Ключевые слова: Развитие речи, сказкотерапия, коммуникативные навыки, методика логопедии, речевая деятельность, дети с неполным речевым развитием, педагогический подход

KIRISH

Mamlakatimiz yoshlariga erta ta'lim-tarbiya berish mas'uliyatini hozirda yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim muassasalari o'z zimmasiga olgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bilimlarni berish shakli mashg'ulotdir. Mashg'ulotlar jarayonida bolaning nutqi rivojlanib, undagi grammatik va fonematik qirralari sayqallanib, til boyligi oshib borish bilan bir qatorda undagi psixologik va intellektual jihatlar rivojlanib boradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida 5 ta metodika bo'yicha bolalarga ta'lim tarbiya saboqlari berib boriladi. Bular eng asosiysi «Nutq o'stirish mashg'ulotlari» desak mubolag'a bo'lmaydi.

Chunki, nutq o'stirish nafaqat bolaning so'z boyligini oshirish, nainki uning muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, balki undagi bilish jarayonlarining, shu jumladan bolaning tafakkurini o'stirishda ham muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi zamon logopedik va pedagogik amaliyotida nutqiy rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni ijtimoiy moslashtirish, ularning kommunikativ salohiyatini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda og'zaki muloqotga kirishish, fikrini ifoda etish, savollarga javob berish kabi asosiy til birliklaridan foydalanish ko'nikmalari sust rivojlanadi yoki umuman shakllanmagan bo'ladi. Bunday bolalarda nutqiy faoliyatni rag'batlantirish uchun an'anaviy usullardan tashqari, bolalar psixologiyasiga yaqin, motivatsion jihatdan kuchli bo'lgan metodlardan foydalanish zarur.

Shu nuqtai nazardan, xalq og'zaki ijodi, xususan ertaklardan foydalanish orqali bolalarning muloqot faoliyatini faollashtirish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ertaklar vositasida bola nafaqat til boyligini o'zlashtiradi, balki voqealarni ifodalash, obrazlarni tasvirlash, emotsional ta'sirlanish orqali faol muloqotga kirishishni o'rganadi. Bundan tashqari, ertaklar bolalarning fantaziyasini rivojlantiradi, nutqiy konstruksiyalarni o'zlashtirishga imkon beradi va eng muhimi – muloqotga bo'lgan ichki ehtiyojni shakllantiradi.

Ushbu maqolada nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning muloqotini ertaklar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali shakllantirish metodikasi tahlil qilinadi.

Shuningdek, samarali yondashuvlar, mashg'ulot shakllari va logopedik tavsiyalar ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab beriladi.

Muhokama va natijalar

Ertaklar orqali biz bola qalbidagi muammolarni ochishimiz va yechishimiz mumkin. Bunday ertaklar terapevtik ertaklar deb nomlanadi. Ko'pincha ertaklar kechqurun uyquga yotishdan oldin aytiladi, sababi bola bu paytda tinch bo'lib, bu aynan unga ta'sir o'tkazish uchun qulay paytdir. Shuning uchun kechqurun yaxshilik bilan tugaydigan pozitiv mazmunli ertaklar aytib berish kerak. Shuningdek, oila davrasida, kattalarning muhokamasi bilan tinglangan ertaklar muommoni hal qilishga, korreksiyalashga zamin yaratadi. Ertaklar bolani ulg'aytiradi. Birinchi navbatda ertakni bolaga bajonidil aytib bermoq lozim, shunda xalq ijodidan bola ko'proq narsa oladi. Ertaklar bolalik uchun juda muhim hikoyalardir. Bu hikoyalar shunchaki baxtli emas, ular hikoyalarda ko'rsatilgan qahramonlar va fazilatlar orqali haqiqiy axloqiy saboqlarni tasvirlaydi. Ular nafaqat yoshlarning tasavvurini o'ziga jalb qiladi, balki ularning ijodkorligi va fikrlash qobiliyatini ham oshiradi. Bola bu ajoyib hikoyalarni tinglash orqali ko'p narsalarni o'rganadi. Bu, shuningdek, ota-onalar o'z farzandlariga ertak o'qiganda, ota-ona va bola o'rtasida maxsus munosabatlarni yaratadi. Ertaklar bola bilan muloqot qilish usulidir, ertak orqali hayotni o'rgatish butunlay boshqacha bo'lishi mumkin, lekin haqiqatan ham samarali va mazmunli. Ertak tinglashda bola juda ko'p his-tuyg'ularni boshdan kechiradi, qahramonlar bilan tanishishi va turli xil narsalarni boshdan echirishi mumkin. Ertaklarda nafaqat hamma narsa go'zal va muammosiz, balki qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi, ularni engish mumkinligini ko'rsatadi. Ertaklar har bir mamlakatning madaniy merosi sifatida bolaning ma'naviy kamolotida katta ahamiyatga ega. Ertaklar bolaning his-tuyg'ulari va qiziqishlariga javob beradi, uning ongida yangi tushunchalarni yaratadi va rivojlantiradi, uning atrofidagi dunyo haqida ko'proq narsalarni tushunishga yordam beradi. Shuningdek, ular asosiy kasblar bilan tanishishga yordam beradi (masalan, ertakda ko'pincha novvoy, tegirmonchi, temirchi, ovchi, dehqon va boshqalar bor). Ular kattalarning harakatlariga, xatti-harakatlariga, fikrlari va his-tuyg'ulariga ko'p yillar davomida ta'sir qiladigan chuqur taassurot qoldiradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish ijtimoiy jihatdan muhimdir. Muloqot ko'nikmalarining, dialogik nutqning yo'qligi yoki etishmasligi shaxs rivojlanishidagi turli buzilishlarga olib keladi, atrofdagi insonlar bilan o'zaro harakatlanishdagi muammolarining o'sishiga olib keladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasida sog'lom, tabiiy muhit yaratish, ularning to'g'ri muomalaga kirishishi, boshqalar bilan gaplashish ishtiyoqining ortishiga turtki bo'ladi.

-Bolalarni narsalarning nomlarini to'g'ri aytishga, ularning o'xshash va farqli tomonlarini tushunish, shakli, rangi, sifati, xossalari, jinsi va turiga oid yo'naltiruvchi lug'atini faollashtirish, nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish, nutq madaniyatini shakllantirish, dialogik va monologik nutqini takomillashtirish va nihoyat savod o'rgatishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaga tavsiya

etilgan ertak yoki hikoyani qayta hikoya qilib bera olishini aniqlash. «Zumrad va Qimmat», «Bo'g'irsoq», «Ikki echki», «Ur, To'qmoq», «Echki bolalari», «Toshbaqa bilan chayon» kabi ertak va hikoyatlardan uchtasini taklif etiladi. Bola ertakni eslay olmasa, shu ertaklarga ishlangan rasmlar havola qilinadi.

Bolalar hikoyasi quyidagi ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi:

- Hikoyani mustaqil bayon qilish (kattalarning yordamisiz).
- Matn mazmunining to'liqligi;
- Matnni bayon qilishda izchillik;
- Ifoda vositalaridan foydalanish ko'nikmasi;
- Nutqning ravonligi.

Tevarak-atrofdagi narsa-predmetlarga oid matnni qayta hikoya qilib berishda bolalar nutqida quyidagi kamchiliklar uchrashi mumkin.

- Bolalar ertakni yordamchi savollar bermasdan turib mustaqil hikoya qila Olmaydi;

- Matndagi so'zlarga taqlid qilib so'zlaydi;
- Ba'zi muhim voqealarni tushirib qoldiradi;
- Bir oz to'xtab-to'xtab hikoya qiladi, nutqda uzilish bo'ladi;
- Nutqda ifodalilik yetishmaydi;
- Bir xil tezlikda, bir xil tovushda hikoya qiladi;
- O'zicha ba'zi so'zlarni qo'shib, ma'nosiz hikoya qiladi; kattalar yordami vositasida hikoya qiladi;
- Hikoya qilish jarayonida matn ma'nosini o'zgartirib yuboradi;
- Mantiqiy izchillikka rioya qilmaydi.

4-5 yoshli bolalarni buyumlarni tasvirlashga (o'yinchoqlarni, o'simliklarni, kiyimlarni), ularning o'ziga xos belgilarini aytishga, bolalarga tanish bo'lgan qisqa ertaklarni (masalan: «Echki bolalari bilan»), mashg'ulotlarda birinchi marta o'qib berilgan uncha katta bo'lmagan hikoyalarni qayta hikoya qilishga, 4-5 yoshli bolalar nutqning tovush tomoni ayrim xususiyatlari bilan ajralib turadi: birinchi xususiyati shundan iboratki, ular boshqa kishilar nutqidagi tovushlarni tez idrok etadilar, ikkinchi xususiyati esa tovush talaffuzidagi kamchiliklarni sezish qobiliyati yetarli rivojlanmagan bo'ladi va uchinchi xususiyati hali bolalarda artikulyatsiya apparati yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. Ilk turdagi nutqiy rivojlanishda 4-5 yoshdan maxsus tayyorgarliksiz hikoya qilib berish boshlanadi. Bolalar sehrli ertaklar va bo'lgan voqealarni bir-biriga so'zlab beradilar, o'yinchoqlardan foydalangan holda o'ziga xos hikoyalar to'qiydilar. Agarda bola yetti yoshida tanish an'anaviy ertakni («Zumrad va Qimmat», «Egri va To'g'ri» kabi) mustaqil hikoya qilib bera olsa, o'yinchoqlar, sur'atlar asosida kichik og'zaki insho to'qiy olsa bular uning nutqi yetarli darajada rivojlanayotganini bildiradi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan logopedik-pedagogik ishlar bugungi kunda o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Chunki og'zaki muloqot ko'nikmalari zaif bo'lgan bolalarda ijtimoiy moslashuv, o'qishga tayyorgarlik, tafakkur

va emotsional rivojlanish jarayonlari sezilarli darajada cheklangan bo'ladi. Bunday sharoitda nutqiy rivojlanishni faollashtiruvchi, tabiiy va qiziqarli metodik vositalardan foydalanish zarur. Shu nuqtai nazardan ertaklar asosida tashkil etilgan logopedik mashg'ulotlar o'zining ijobiy samarasini ko'rsatmoqda. Quyida mavzuga oid asosiy tushunchalar tahlil qilinadi:

Logopedik metodika — bu nutq buzilishlarini bartaraf etish va bolada to'laqonli nutqiy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan usullar, texnika va yondashuvlar majmuasidir. Logopedik metodikalar bolaning yosh xususiyatlari, rivojlanish darajasi va nutq buzilishi turiga qarab tanlanadi. Ertaklar asosida tuzilgan metodik materiallar, o'yinli topshiriqlar va dramatizatsiya elementlari logopedik amaliyotda ayniqsa samarali hisoblanadi.

Nutqiy faollik deganda bolaning o'z fikrini og'zaki ifodalashga bo'lgan ichki ehtiyoji, nutqiy vaziyatlarda faol qatnashishga intilishi tushuniladi. Nutqi rivojlanmagan bolalarda bu faollik yetarli darajada shakllanmagan bo'ladi. Ertak asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar esa bolalarni muloqotga jalb etish, obrazli fikrlash, gap tuzish va mustaqil ifoda qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Nutqi rivojlanmagan bolalar — bu og'zaki muloqotda grammatik jihatdan to'g'ri, izchil va aniq gapira olmaydigan, nutqiy apparati faoliyati cheklangan yoki rivojlanishida kechikish mavjud bo'lgan bolalardir. Ular bilan ishlashda samarali pedagogik va logopedik yondashuvlarni qo'llash muhim bo'lib, ayniqsa ertaklar asosida olib borilgan ishlar ular uchun tushunarli, motivatsion va o'yin asosidagi faoliyat bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik yondashuv esa bolani o'rganish, tarbiyalash va o'qitishga oid tamoyillar va metodlar tizimini anglatadi. Nutqi rivojlanmagan bolalar bilan ishlashda individual, kommunikativ, shaxsga yo'naltirilgan va o'yin orqali o'qitish yondashuvlari ustuvor hisoblanadi. Ertaklar bilan ishlashda pedagog bolaning emotsional holati, qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, samarali muloqot muhitini yaratishga harakat qiladi.

Umuman olganda, ertaklar orqali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi logopedik va pedagogik faoliyatning o'zaro integratsiyasiga asoslanadi. Bu yondashuv nafaqat bolaning nutqiy rivojlanishiga, balki ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Olib borilgan nazariy tahlillar va amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar jarayonida ertaklardan foydalanish ularning muloqotga kirishish faolligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o'zbek xalq ertaklari asosida tuzilgan didaktik materiallar, rolli o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar bolalarda og'zaki nutq faolligini rag'batlantiradi, emotsional-irodaviy holatni ijobiy tomonga o'zgartiradi, shuningdek, bolalarning e'tibor, eslab qolish va tasavvur kabi psixik funksiyalarini rivojlantiradi. Ertak matni asosida tuzilgan muloqotli topshiriqlar, personajlar bilan bog'liq savol-javoblar, hikoya

tuzish va dialogik nutq shakllarini rivojlantiruvchi mashqlar orqali bolalarda muloqotga kirishishga nisbatan ishonch va qiziqish ortadi. Ushbu metodika bolalarning nutqiy mustaqilligini oshirish, iborali gaplar tuzish, voqeani ketma-ketlikda ifodalash, savollarga to'g'ri va to'liq javob qaytarish ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaliy mashg'ulotlar asosida aniqlangan natijalarga ko'ra, ertak asosida olib borilgan mashg'ulotlardan so'ng bolalarda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi: passiv so'z boyligining faollashuvi, yangi so'z va iboralarning nutqda qo'llanilishi; muloqotga kirishishdagi ishonchsizlikning kamayishi, ijtimoiy faollikning oshishi; mustaqil hikoya tuzish, voqeani bayon qilish va obrazlarga xos so'zlarni tanlab ishlatish malakasining shakllanishi; emotsional holatning barqarorlashuvi va ijobiy munosabatlarning shakllanishi.

Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, u bolaning tabiiy qiziqishlariga tayanadi, nutq faoliyatini majburan emas, balki ongli ravishda va motivatsiya asosida shakllantiradi.

Bu esa metodikaning pedagogik va psixologik jihatdan samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi nazariy tahlil va amaliy kuzatishlar asosida xulosa qilish mumkinki, ertaklar nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan logopedik va pedagogik ishlar jarayonida samarali ta'sir ko'rsatadigan metodik vosita sifatida o'zini oqlaydi.

Ertaklar orqali muloqotga kirishish, fikrni ifodalash, voqeani bayon qilish va emotsional bog'liqlikni shakllantirish mumkin bo'ladi. Ertaklar nafaqat bolalarning nutqiy, balki psixik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular orqali bolaning tasavvuri, e'tibori, eslab qolish qobiliyati ham faol rivojlanadi.

Olingan natijalarga asoslanib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida nutqi rivojlanmagan bolalar bilan ishlovchi logopedlar uchun ertak asosidagi maxsus logopedik mashg'ulotlar dasturini ishlab chiqish va joriy etish;
2. Ertaklar asosida tuzilgan dialogik mashqlar, rolly o'yinlar va dramatizatsiya mashg'ulotlarini muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda tizimli ravishda qo'llash;
3. Logopedik amaliyotda multimediali ertaklar va vizual materiallardan foydalanish orqali bolalarning nutqqa bo'lgan qiziqishini oshirish;
4. Ota-onalarni jalb qilgan holda uy sharoitida ertak o'qish va muhokama qilishni rag'batlantirish, bu orqali bolaning muloqotga tayyorligini kuchaytirish;
5. Kelgusida ertak terapiyasining turli yoshdagi bolalarga ta'sirini o'rganish, shuningdek, turli nutq buzilishlariga ega bolalar uchun differensial metodik yondashuvlarni ishlab chiqish.

Umuman olganda, ertaklar orqali muloqotni shakllantirish metodikasi logopedik amaliyotda qo'llashga tavsiya etiladi va u individual yondashuv, emotsional ta'sirchanlik va nutqiy faoliyatni rag'batlantirish tamoyillariga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anisimov V.P. Art-pedagogika kak sistema psixologicheskogo soprovojdaniya Obrazovatel'nogo protsessa // Vestnik OGU. №4 (2003) -146 s.
2. Medvedeva Ye.A. Sotsiokulturnoe stanovlenie lichnosti rebenka s problemami psixicheskogo Razvitiya sredstvami iskusstva v obrazovatel'nom prostranstve: dis. D-ra psix. Nauk. / Ye.A. Medvedeva. – Nijniy Novgorod.: Art-press, 2007. – 186 s
3. Sergeeva N.Yu. Soderjanie ponyatiya «artpedagogika» // Izvestiya VGPU, – № 1. 2008. – S. 24 -28.
4. Sergeeva B.V., Petrenko N.A. Esteticheskoe vospitanie mladshix shkolnikov // Sovremennyye Naukoemkie tekhnologii. 2016. – №12. – S. 428-432.
5. Valiyeva F.R, Abdunazarova N. F, Zakirov A A. The importance of ensuring the mental, Physical, spiritual, spiritual development of educators of pre-school educational organizations. PhD. Valieva Feruza Rashidovna //Bosma //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, Issue 8. July. 2021:6919.
6. Kalmuratov T.N. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining boshqaruv faoliyatini Boshqarish. "Maktabgacha ta'lim xalqaro tajriba va rivojlanish istiqbollari" Xalqaro ilmiy
7. Shodiyeva Q. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish»-T.: "O'qituvchi"1990Qodirova F.R.
8. Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va Metodikasi. -T.: Istiqlol, 2006. Amaliy konferensiya materiallari 2021, Bet 167-168. 2 bet
9. Q.T, Mavlonov N.Sh., O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini pedagog kadrlar
- Bilan ta'minlash va ularning kompetentsiyasini oshirish jarayonining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari, Glaballashuv davrida yangi avlodni tarbiyalash: undagi qiyinchilik va Istiqbollari. Mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiya 2022-yil 1 aprel, 21-23
10. Abduraxmonova G'. (2019). Logopediya asoslari. Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti.
11. Raxmonova M. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanish muammolari. Toshkent: Ilm Ziyo.
12. Z. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
13. S., Rajabova N. (2022). Defektologiya va logopediyada metodik yondashuvlar. Samarqand: Imkon.
14. Pedagog.uz – Maktabgacha ta'limda logopedik ishlarni tashkil etish:

<https://pedagog.uz>

15.ZiyoNet – Nutqiy rivojlanishda ertaklarning o‘rni:

<https://ziyonet.uz>

16.Oila.uz – Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy muammolar va ularni bartaraf etish usullari: <https://www.oila.uz>